“ZARBULMASAL” ASARIDA DIDAKTIK RUHDAGI AXLOQIY-TARBIYAVIY G’OYALAR TASNIFI

Akramova Jayrona Jamol qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi,
Sharipova Sunbula Ahad qizi
ilmiy rahbar, O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Gulxaniyning “ Zarbulmasal” asari, uning kompozitsion tuzilishi, asarning adabiyotimizdagi didaktik o’rni, muallifning inson kamolatidagi qarashlari tahlil qilinadi. Fikr mulohazalar asardagi ayrim masallarning tahlili orqali asoslanadi.*

Kalit so’zlar: *Gulxaniy, Zarbulmasal, didaktik, hikoyat, masallar, maqol, sangpush, tuya.*

Kirish. Musulmon sharq adabiyotida pand-nasihat, umuman, didaktika alohida o’rin tutadi. Didaktikaning nodir namunalaridan biri bo’lgan Zarbulmasal- XVIII asr oxiri- XIX asrning 20-yillarida yashab ijod qilgan mashhur masalnavis adib va shoir Gulxaniy qalamiga mansub. Jo’shqin felligi va olov qalbligi tufayli o’ziga Gulxaniy taxallusini tanlagan. Keyinchalik she’rlarida Jur’at taxallusidan ham foydalangan. Gulxaniyning o’zbek va tojik tillardagi 12 ta g’azali, Qo’qon xoni Amir Umarxonga bag’ishlangan bitta qasidasi hamda Zarbulmasal asri bizga yetib kelgan. Ushbu asar yirik masal shaklida bo’lib o’zbek mumtoz adabiyotida masal janrining eng mukammal namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Asar nomining o’ziyoq uning mohiyatini anglatadi. “Zarbulmasal” so’zi “maqol”,”hikmatli so’z”,”ibratli

gap” degan ma’noni bildiradi. Asar boshidan oxiriga qadar didaktik, pand-nasihat va tarbiya g’oya asosida yozilgan.

ADABIYOT TAHLILI. Shu o’rinda asarning o’rganish tarixiga to’xtalish maqsadga muvofiq. Asarning o’rganilish tarixi XIX-XX asrlarga borib taqaladi. Asar ,asosan, Zarbulmasal”ning Gulxaniy yashab turgan vaqtda ko‘chirilgan nusxasi uchramaydi. “Zarbulmasal” nusxalarining hammasi shoir vafotidan kamida 30-40 yil o‘tib qalamga olingan bo‘lib, til materiallari bo‘yicha nusxalari bir-biridan farq qiladi.“Zarbulmasal”ning hozirga qadar qo‘lyozma nusxasi va o‘ndan ziyod bosma nusxalari borligi aniqlangan. Bu borada, ayniqsa, N.P.Ostroumov ko‘p xayrli ishlarni amalga oshirgan. U asar qo‘lyozmalarini izlab topib, birinchi marotaba 1890-yilda uning litografik nashrini amalga oshirdi.Aslida keyin nashr etilgan barcha ishlar mana shu nashrga tayangan, deyish mumkin. Shundan keyin Toshkentda asar litografik usulda bir necha marta chop etilgan.

1926-yilda Sadriddin Ayniyning “Namunayi adabiyoti tojik” majmuasida Gulxaniy ijodidan namuna berildi. A.Fitratning adabiyotimiz tarixiga oid 1929- yilda yozilgan “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash” deb nomlangan maqolasida “Gulxaniydavriga kelib Farg‘ona saroy adabiyotining xalq adabiyotiga ayricha diqqat qilganligi ham ko‘rinadur”, degan fikrni bildirib, buning natijasida “Zarbulmasal yuzaga kelganligini qayd etadi. O‘zbekiston partiya tashkilotining 30-yillardagi rahbari Akmal Ikromov san’at va adabiyot xodimlari oldiga “eng yaxshi o‘zbek adabiyotini ... muqaddima va izohlar bilan bosib chiqarish”dan iborat jiddiy bir talabni qo‘yar ekan, bu namunali adabiyotga Gulxaniy merosini misol qilib: “Zarbulmasali Gulxaniy” degan kitob bor, bu kitob butunicha maqollardan tuzilganki, bu ajoyib boy o‘zbek tilini xarakterlaydi. Nima uchun

bu kitob bosib chiqarilmaydi?!" deya taassuf bildirgan edi. Shundan keyin Gulxaniy ijodini o'rganishga kirishildi, maqolalar yaratildi, ilmiy izlanishlar olib borildi. "Zarbulmasal" turli qo'lyozmalari asosida nashrga berildi. 1945-yilda Olim Sharafuddinov tuzgan "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi"da "Zarbulmasal"dan parchalar e'lon qilindi.

1951-yilda esa H.Yoqubov tomonidan asar nashrga tayyorlanib, "Zarbulmasal (Yapaloqqush hikoyasi)" nomi bilan "O'zbek adabiyotii klassiklari" seriyasida kitobcha holida nashr etildi. Gulxaniydan qolgan adabiy meros "Zarbulmasal va g'azallar" nomi bilan 1958- va 1960-yillarda chop qilindi va asarning matni shu nashrlar asosida darslik va qo'llanmalarga kiritildi.[1]

"Zarbulmasal" asari kompozitsiyasi 400 ga yaqin maqol, matal, naql va 15 dan ortiq katta kichik masal va hikoyatlar mavjud. Bu muallifning xalq hayoti, turmush tarzi, an'analari va marosimlari, og'zaki va yozma adabiyotini chuqur bilganidan dalolat beradi. U mashhur hind eposi " Kalila va Dimna", Abdurahmon Jomeyning " Silsilat uz-zahab" asarlaridan xabardor bo'lgan. Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Sufi Olloyor kabi ulug' so'z ustalari hikmatlaridan ham mahorat bilan foydalangan. Bularning barchasi asarning ta'sirchanligi va o'qishliligini oshirgan.[2:49-b.].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek Zarbulmasal asari axloqiy va tarbiyaviy hikoyatlar pand-nasihat hamda didaktik ruhidagi mulohazalari bilan boyitilgan. Zarbulmasalda insonlarning halollik, domnolik, adolat, sabr-toqat va saxiylik kabi fazilatlar ulug'lanadi.

Zarbulmasal asaridagi hikoyatlardan biri "Chayon va toshbaqa" hikoyatiga to'xtaladigan bo'lsak hikoyat hayvonlar orqali insonlarga xos harakterlar ochib berilgan. Hikoyatga ko'ra, salbiy fel atvorga ega odamdan

yaxshilik kutish xato ekanligi, insonlarning asl tabiati juda og'ir vaziyatda nomoyon bo'lishi har kim bilan do'stlashishda ehtiyot bo'lidh kerakligi kabi g'oyalarga urg'u berilgan. Yana bir "Tuya va bo'taloq" hikoyatini tahlil qiladigan bo'lsak:

Bor edi Farg‘onada bir sorbon[5],
Tevasi6 bor erdi, tug‘ub nogahon.
Ahli ayoli[7] ani bor erdi cho‘x,
Ozuqadin kulbasida narsa yo‘x.
Hosili dunyo[8] edi bir tevasi,
Emadig‘on orqasidin bo‘tasi.
Bir kuni u tevasini qo‘mladi[9],
Ortadig‘on yuklarini jo‘mladi1
Yuklari erdi og‘ir-u yo‘l yiroq,
O‘rtadi tayloqini1 nori firoq[2].
Fasli tamuz[3] erdi, havo cho‘x isig‘,
Yo‘lda temurdek edi, qumlar qiziq.
Och o‘tina kuydi anodin[4] judo,
Modarini[5] mehrida erdi ado.
Jahd ila yetmay anosin keynidin,
Qumda kuyardi g‘ami ul siynadin6.
Og‘di yuki yo‘lda o‘shal sorbon,
Yerga cho‘kurdi tuzatay deb ravon.
Qoldi horib anosi arqosidin[7],
Yondi haroratlari yag‘mosidin[8].
Yuzlanib aytdi: «Ayo, berahm enam,
Kuydi-yu, yondi-yu, tutashti tanam.

Asta yurusang na bo‘lur, man yetay,
Tashna bo‘lub hordim-u qoldim, emay».
Aydi anosi balosig‘a[9] boqib,
Ko‘zlarini yoshlari suvdek oqib:
«Ko‘rki, burunduq kishini qo‘lida,
Bu kishini ko‘zlari o‘z yo‘lida.
Manda agar zarra kabi ixtiyor
Bo‘lsa edi, bo‘lmas edim zeri bor[10]»[3:54-b.].

1-Tayloq – bu yerda bo‘taloq. 2-Nori firoq – ayriliq azobi. 3-Tamuz – yoz, saraton. 4-Ano – ona. 5-Modar – ona. 6-Siyna – bu yerda ona ko‘kragi. 7-Arqosidin – orqasidan. 8-Yag‘mo – talon-taroj. Bu yerda issiq azobi ko‘zda tutilmoqda. 9-Balo – bola. 10-Zeri bor – yuk ostida (qolmoq).

Hikoyatda quyidagi go’yalar ustuvorlik qiladi. Jumladan “Tuya va bo’taloq” masalida ota-onalarning nasihatiga quloq solishi, ularni hurmat qilishi, “Toshbaqa va chayon” masalida sabrli bo’lish, mashaqqatlarni yengib o’tish kabi fazilatlar ulug’lanadi. “Maymun va durroj” masalida nodonlik va taqlidchilik, “Kabutar va zog’” masalida esa ishonuvchanlik va nodonlarcha do’st tanlash kabi illatlar qoralanadi. Demak bu hikoyatda sabr, itoatkorlik va ota-ona so’ziga xurmat habi axloqiy fazilat ulug’langan.

Zarbulmasaldagi obrazlar tahlili: asarda ko’plab obrazlar uchrayli: sher, tulki, eshak, tuya, qushlar, turli odamlar va hokozolar. Ushbu obrazlar ramziy ma’no kasb etadi. Masalan, sher odatda qudrat egasi adolatli bo’lish lozimligini uqtiradi. Tulki esa ayyorlik, hiylakorlik, o’z manfaati yo’lida har

qanday usuldan foydalanish kabi salbiy fazilatlar timsolidir. Unga doimo ishonib bo'lmasligi, aql va ehtiyotkorlik bilan yondashish kerakligi anglatiladi. Eshak ko'pincha sodda, mehnatkash, biroq ba'zan e'tiborsizligi yoki aqlsizligi tufayli aldanadigan timsol sifatida gavdalanadi. Gulxaniy eshak obrazidan foydalanib, insonlarning beparvoligi yoki bilimsizligini kinoya bilan ko'rsatadi. Bo'ri shafqatsizlik, tajavvuz yoki ochko'zlik ramzi bo'lib jamiyatda kuchli bo'lishi bilan birga adolatsiz zolim kishilarni ifodalaydi. Shu tariqa har bir hayvon yomki shaxsiy obraz ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir qatlam yoki fazilatni aks ettiradi. Bunday ramziy ifoda masal janrining muhim xususiyati hisoblanadi. O'quvchi obrazlarni o'qish davomida hayotiy misollarni ilg'ab oladi, bu esa asarning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.[4]

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki Gulxaniy Zarbulmasal asarida hayvonlar timsolida o'sha davr ijtimoiy muhiti, hukmdorlar davri, oddiy xalq hayotini majoziy obrazlar orqali fosh etib beradi. Asarning asosiy maqsadi insonlarni ma'nan tarbiyalash yomon xulq atvordan qaytarish va ularda yaxshi fazilatlarni shakllantirishdir. Gulxaniy majoz va hikoyatlar orqali jamiyatdagi kamchiliklarni tanqid qiladi, insonlarni komillikka chorlaydi. Ushbu asar uzoq asrlar mobaynida inson tarbiyasi, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim dastur amal vazifasini o'tab kelmoqda.Gulxaniy "Zarbulmasal" asarida o'z davrining actual masalalarini badiyiy ifodalab bergan. Mamlakatning vayronligini "Zarbulmasal" asarida obrazlar orqali aniq ifodalaydi. Jumladan, Gulxaniy o'zi yashagan davr muommolarini allegoric usulda, ya'ni "Zarbulmasal" da ifodalaydi, xalq dardini nomoyon qila olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova Saodat Abduraximovna Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi s.a.qodirova@buxdu.uz

2. 6-sinf adabiyot darsligi Toshkent ma’naviyat 2017

3. Mutolaa

4. Orzibekov R. 0 ‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI (XVII-XIX (I yarmi) asrlar). O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. — T.: 2006. 272 bet.